

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida

UDK: 338.45:656.073:625(575.1)

NASIMOV SHAVKAT VASIYEVICH

YUK TASHISH SOHASIDA TEMIR YO'L TRANSPORTINING
RAQOBATBARDOSHLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
iqtisod fanlari nomzodi,
professor Xotamov I.S.

TOSHKENT-2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. YUK TASHISH SOHASIDA TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI.....	12
§1.1. Transport turlari raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	12
§1.2. Transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, uning mohiyati va mazmuni.....	24
§1.3. Temir yo'l transporti tizimining raqobatbardoshlik va samaradorlik darajasini baholovchi indikatorlar.....	34
<i>Birinchi bob bo'yicha xulosalar</i>	48
II BOB. TEMIR YO'L TRANSPORT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI.....	49
§2.1. Temir yo'l transport tizimi iqtisodiy samaradorligining hozirgi holati tahlili.....	49
§2.2. Logistika provayderlari xizmatlaridan foydalanish orqali temir yo'l transportining raqobatbardoshligi oshirish.....	63
§2.3. Yuk tashishda temir yo'l transporti raqobatbardoshligini baholash uslubi.....	75
<i>Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar</i>	85
III BOB. YUK TASHISH SOHASIDA TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	87
§3.1. Yuk tashish sohasida temir yo'l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning konseptual modeli.....	87
§3.2. Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	105
§3.3. Temir yo'l transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini modellashtirish va prognozlash.....	116
<i>Uchinchi bob bo'yicha xulosalar</i>	129
XULOSA	130
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	132

KIRISH (falsaфа doktorlik (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahonda yuz berayotgan integratsiya jarayonlarida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishda transport kompleksi va infratuzilmalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur sohalarni rivojlantirish vazifalari jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshirilmoqda. Jhon banki ma'lumotlariga ko'ra, "jahon transport xizmatlarining YAIM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSH dollari (6,9%) hajmida baholanib, yiliga 110 mld. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etadi"¹. Dunyoda zamonaviy yuk tashish texnologiyalari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shu boisdan transport tizimini innovasion rivojlanishini ta'minlash jahon mamlakatlarida "transport-tranzit" va "transport-logistika" salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida transport sohasini iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolar, jumladan, yagona transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, multimodal va intermodal texnologiyalarini qo'llash asosida materiallar harakatini tezlashtirish, yetkazib berishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda transport-logistika va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlar hamda temir yo'l transportini iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, avtomatlashtirish va raqamli platformalarni joriy etish orqali boshqaruv tizimlarini samarali qilib tashkil etish, temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish uchun uning xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyasini ta'minlash, yuk tashish xizmatlarining narxlarini optimallashtirish, ekologik samaradorlikni oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, temir yo'l transportining boshqa transport turlari bilan integratsiyasini yaxshilash, texnologik innovatsiyalar va raqamlashtirish, yuk tashish xizmatlari uchun mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilash masalalari bu boradagi

¹ The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>

tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham «transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish»² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi temir yo‘l transporti tizimining iqtisodiy faoliyatini monitoring qilishga va sohadagi muammolarning ta’sir darajasini aniqlashga qaratilgan, iqtisodiy rivojlanish darajasiga baho beruvchi indikator-ko‘rsatkichlarning “me’yoriy” va “rivojlanish koeffisiyenti” qiymatlarini asoslash, temir yo‘l transporti tizimini yanada rivojlantirishning strategik maqsadlari, tarmoqni takomillashtirishning uslubiy ta’minoti va tamoyillari, tashkiliy-iqtisodiy konsepsiysi asosida har bir yo‘nalishning o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish, sifat quyi tizimlarining temir yo‘l transporti foydasiga ta’sir etish orqali uning samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi asoslash, zamonaviy yetkazib berish provayderlarini qo‘llagan holda tizimning davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi va temir yo‘l transportida yuk tashishning zamonaviy modeli asosida tizimni iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlarini taklif etishga qartilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldaggi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 1 fevraldaggi PF-5647-son «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 2 dekabrdagi PQ-3422-son «2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldaggi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmoni. // www.lex.uz.

yo‘nalishdagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari soha maktabi vakillari hisoblangan P.Romer, R.Xarrod, Ye.Domar, D.Xemberg, R.Solow, Y.Shumpeter, V.Rostou tomonidan o‘rganilgan³. Lekin mazkur tadqiqotlar fundamental tavsif kasb etib, masalaga umumiy yondashilgan va aynan temir yo‘l tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish muammolari o‘rganilmagan.

MDH davlatlari izlanuvchilari I.Belov, G.Bubnova, G.Vovk, V.Galaburda, O.Yefimova, A.Zaysev, A.Kaplan, R.Kojevnikov, V.Kozirev, V.Kolesnikov, B.Lapidus, L.Leviskaya, B.Lyovin, B.Anikin, E.Gagarskiy, V.Gerami, V.Dibskaya, A.Kirillova, A.Kolik, P.Kurenkov, E.Mamayev, L.Mirotin, V.Morgunov, D.Novikov, V.Sergeyev va L.Fyodorovlar mintaqal transport va logistika infratuzilmalari muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan⁴.

MDH olimlaridan ushbu sohada I.Belov, G.Bubnova, G.Vovk, V.Galaburda, O.Efimova, A.Zaysev, A.Kaplan, R.Kojevnikov, V.Kozirev, V.Kolesnikov, B.Lapidus, L.Leviskaya, B.Lyovin, B.Anikin, E.Gagarskiy, V.Gerami, V.Dibskaya,

³Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71 – S102.; Домар Е. «Очерки по теории экономического роста»-М.: МЭ и МО, 1956 г.; Хемберг Д. «Ранняя теория роста: модели Домара и Харрода». Современная экономическая мысль. Серия «Экономическая мысль Запада» / Под ред. С. Вайнтрауба, В.С. Афанасьева, Р.М. Энтова. М.: Прогресс, 1981; Solow, R. (1956). A contribution to the theory of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94. <https://doi.org/10.2307/1884513.>; Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.; Rostow W. Politics and the Stages of Growth. 1971.

⁴Белов, И. В.Математические методы в планировании на железнодорожном транспорте: учебник для вузов ж.-д. трансп. И. В. Белов, А. Б. Каплан. – 2-е изд., перераб, и доп. – М.: Транспорт, 1972. – 248 с: а-ил.; Бубнова, Г. В. Логистическое взаимодействие компаний-операторов при организации вагонопотоков по экономическим критериям. Г. В. Бубнова, А. А. Ерофеев, П. Г. Коренев // Экономика железных дорог. – 2012. – № 10. – С. 85.; Вовк, А. А. Развитие системы показателей использования подвижного состава.; А. А. Вовк, В. Б. Литовченко // Экономика железных дорог. – 2014. – № 2. – С. 76-79; Галабурда, В. Г. Единая транспортная система: Учеб. для вузов / В. Г. Галабурда, В. А. Персианов, А. А. Тимошин [и др.] ; под ред. В. Г. Галабурды. – 2-е изд. с измен.и дополн. – М.: Транспорт, 2001. – 303 с.; Ефимова, О. В. Экономические критерии управления вагонным парком /О. В. Ефимова, Е. Б. Бабошин, Б. В. Игольников // Экономика железных дорог. – 2012. –№ 5. – С. 46.:

A.Kirillova, A.Kolik, P.Kurenkov, E.Mamaev, L.Mirotin, V.Morgunov, D.Novikov, V.Sergeyev va L.Fyodorovlar tomonidan mintqa transport va logistika kompleksining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari chuqur o‘rganilgan va izohlangan⁵.

O‘zbekistonlik olimlardan G.Samatov, M.Ikramov, K.Uldjaboyev, Yo.Qorriyeva, A.Sermuxamedov, K.Ziyadullayev, M.Irisbekova, A.Zohidov, A.Gulamov, V.Yarashova va J.Fayzullayev va boshqalar mamlakat transport tizimini samarali rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratganlar⁶. Shuningdek, transport kommunikatsiyalari muammolarini siyosiy fanlar kesimida tadqiq etgan tadqiqotchilar qatorida J.Artikov, I.Qodirov, R.Sarbayev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan⁷.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarda transport tizimini boshqarish mexanizmi muammolari, uning makroiqtisodiy jihatlari va temir yo‘l transporti korxonalarining asosiy kapitalini iqtisodiy nuqtai nazardan baholashda metodologik yondashuvlar

⁵Белов, И. В.Математические методы в планировании на железнодорожном транспорте: учебник для вузов ж.-д. трансп. И. В. Белов, А. Б. Каплан. – 2-е изд., перераб, и доп. – М.: Транспорт, 1972. – 248 с: а-ил.; Бубнова, Г. В. Логистическое взаимодействие компаний-операторов при организации вагонопотоков по экономическим критериям. Г. В. Бубнова, А. А. Ерофеев, П. Г. Коренев // Экономика железных дорог. – 2012. №10. С-85.; Вовк, А. А. Развитие системы показателей использования подвижного состава.; А. А. Вовк, В. Б. Литовченко // Экономика железных дорог. 2014. № 2. С-76-79; Галабурда, В. Г. Единая транспортная система: Учеб. для вузов / В. Г. Галабурда, В. А. Персианов, А. А. Тимошин [и др.] ; под ред. В. Г. Галабурды. – 2-е изд. с измен.и дополн. – М.: Транспорт, 2001. – 303-с.; Ефимова, О. В. Экономические критерии управления вагонным парком /О. В. Ефимова, Е. Б. Бабошин, Б. В. Игольников // Экономика железных дорог. 2012. №5. С-46.:

⁶Samatov G`A. va boshqalar. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistic ishonchliligi. – Т.: ToshDAU nashr tahririysi bo`limi, 2003. – 82 б; Ikramov M.A. Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути // Экономическое возрождение России, №4, 2010. –С. 28-36; Uldjaboev K.U. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте – Тошкент, «Мехнат», 1999г.; Қорриева Я.К. O‘zbekistonninig jahon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yo`laklardan samarali foydalanishning logistic transport muammolari. Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref., Toshkent 2004; Sharmuxamedov A.T. Великий шелковый путь и транспортные перевозки. ФРГ. – Берлин: Изд. ЛАП, 2012. - 90 с.; Шермухамедов А.Т. Великий шелковый путь и современные автомагистрали. // Экономика и статистика. №6, 2005; Зиядуллаев К.Ш. Интеграция транспортных коммуникатий Республики Узбекистан в международную транспортно-коммуникационную систему // Современные методы организации бизнеса и маркетинга: Межвузовский сборник. –СПб.: СЗТУ, 2005. –С. 101-106.; Ирисбекова М.Н. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2017; Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. Gulyamov A.A. Temir yo`l kompaniyasining asosiy kapitalini iqtisodiy jihatdan baholash metodologiyasini takomillashtirish («O‘zbekiston temir yo`llari» AJ misolida); Yarashova V.K. O‘zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlari.Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022; fayzullayev J.S. Temir yo`l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022.

⁷Artiqov J.Yu. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va transkommunikatsiya muammolari. Siyosiy fan. nom.... dis. avtoref. -Toshkent, 2005; Kodirov I. O‘zbekiston Respublikasi transport diplomatiyasi: muammolar va ularning yechimlari. Siyosiy fan.nom.... dis. avtoref. Toshkent, 2005; Сарбаев Р.М. Развитие транспортных коммуникаций Центральной Азии как важный фактор региональной безопасности.

tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda temir yo‘l transport tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish masalalari, transport va logistika sohalarini yagona tizim sifatida o‘rganish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shuningdek, transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, temir yo‘l tarmog‘ining rivojlanish jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilash, uning raqobatbardoshlik va rivojlanish darajasini baholash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish ilmiy doiralar oldida turgan ilmiy muammolardan hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuk tashish sohasida temir yo‘l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

transport turlari raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

temir yo‘l transporti tizimining rivojlanish indikatorlari ta’sirini o‘rganish;

temir yo‘l transport tizimini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro transport koridorlarining tranzit salohiyati raqobatbardoshligini baholash;

temir yo‘l transport tizimi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish;

yuk tashuvlariga talabni shakllantirishda temir yo‘l transporti samaradorligini baholash;

yuk tashish sohasida temir yo‘l transporti raqobatbardoshligini baholash;

zamonaviy logistika provayderlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

temir yo‘l transporti faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini modellashtirish va prognozlash.

Tadqiqotning ob’yekti bo‘lib «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida temir yo‘l transporti tizimining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish jarayoni bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, funksional va tarkibiy baholash, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyasion-regression tahlil, ekspert baholash, dinamik va statik, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transporti tizimining iqtisodiy rivojlanish darajasiga baho beruvchi indikator-ko‘rsatkichlarning me’yoriy va rivojlanish koeffisiyenti ($K_{rivoj} = 0.61 < 1$) qiymatlarini qo‘llash asosida yuk tashish sohasi iqtisodiy faoliyatini monitoring qilish hamda muammolarning ta’sir darajasini aniqlash taklif etilgan;

yuk tashish sohasini iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlari tarkibida transport-ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish hamda 3PL va 4 PL logistika provayderlari xizmatlaridan foydalanish orqali temir yo‘l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish asoslangan;

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan olingan foydaning asosiy vositalarni yangilash hamda elektrlashtirish darajasini 80 foizga yetkazish, yuk tashuv tannarxini 1,5 barobarga qadar pasaytirish, xizmat ko‘rsatish sifat darajasini 0,55 birlikdan 1 ballga qadar oshirish orqali temir yo‘l tranzit tashuv hajmining o‘rtacha o‘sishini me’yor darajasiga yetkazish taklifi asoslangan;

O‘zbekiston temir yo‘l transporti asosiy faoliyatidan tushum, kiritilgan investisiya, tranzit tashuvi, asosiy fondlar, mahalliy yuk tashish hajmlari omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida temir yo‘l transporti iqtisodiy faoliyatining 2030 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transport tizimi holatini doimiy monitoringini olib borishga, sohadagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga mo‘ljallangan uslubiy tavsiyalar berilgan;

temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish tartibi asoslab berilgan;

ekonometrik va ssenariy modellari asosida temir yo‘l transport tizimini rivojlantirishning ko‘p variantli prognozlari ishlab chiqilgan;

tashuvlarida qulay shart-sharoitlarni taqdim eta olish darajalariga ko‘ra transport xizmatlari ko‘rsatishning sifat darajalarini bir maromdalik koeffisiyenti va yagona kompleks texnologik jarayonlarini tashkil etish asosida hisoblash metodikasi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarning o‘rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning transport sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o‘tganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tegishli vazirlik va idoralar tomonidan integratsiyalashgan transport-logistika tizimini samarali boshqarishda, sohadagi muammolarni aniqlash va tarmoq faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda, mamlakat transport-logistika tizimi istiqbollarini belgilashda foydalanish mumkin. Shu bilan birga tadqiqot natijalaridan «Transport logistikasi», «Logistika», «Temir yo‘l transport korxonalarini boshqarish» fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo‘l transporti tizimining iqtisodiy rivojlanish darajasiga baho beruvchi indikator-ko‘rsatkichlarning me’yoriy va rivojlanish koeffisiyenti ($K_{rivoj} = 0.61 < 1$) qiymatlarini qo‘llash asosida yuk tashish sohasi iqtisodiy faoliyatini monitoring qilish hamda muammolarning ta’sir darajasini aniqlash yuzasidan taklifi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tomonidan «Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanilgan («O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning 2024 yil 5 fevraldaggi 04/2881-20-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida temir yo‘l transport tizimining rivojlanish jarayonidagi salbiy tendensiyalarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini yaratgan;

yuk tashish sohasini iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlari tarkibida transport-ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatishni tashkil qilish hamda 3PL va 4 PL logistika provayderlari xizmatlaridan foydalanish orqali temir yo‘l transportining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish yuzasidan taklifi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tomonidan «Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanilgan («O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning 2024 yil 5 fevraldaggi 04/2881-20-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston temir yo‘llari iqtisodiy faoliyatining istiqbolini ta’minlashda milliy transport-tranzit tizimini samarali rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshish darajasini aniqlash imkoni yaratilgan;

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan olingan foydaning asosiy vositalarni yangilash hamda elektrlashtirish darajasini 80 foizga yetkazish, yuk tashuv tannarxini 1,5 barobarga qadar pasaytirish, xizmat ko‘rsatish sifat darajasini 0,55 birlikdan 1 ballga qadar oshirish orqali temir yo‘l tranzit tashuv hajmining o‘rtacha o‘sishini me’yor darajasiga yetkazish taklifi yuzasidan taklifi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tomonidan «Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanilgan

(«O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning 2024 yil 5 fevraldaggi 04/2881-20-sodan ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida ta’minot zanjiriga jalb qilingan barcha logistik kompaniyalar integratsiyasi ta’minlangan va tizimning iqtisodiy rivojlanish darajasini 20 foizga oshirish imkonini yaratilgan;

O‘zbekiston temir yo‘l transporti asosiy faoliyatidan tushum, kiritilgan investisiya, tranzit tashuvi, asosiy fondlar, mahalliy yuk tashish hajmlari omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida temir yo‘l transporti iqtisodiy faoliyatining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari yuzasidan taklifi «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tomonidan «Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi»ni ishlab chiqishda foydalanilgan («O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning 2024 yil 5 fevraldaggi 04/2881-20-sodan ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida joriy qilinishi temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmini yaratish imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning umumiyligi hajmi 131 betni tashkil etadi.